



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## SHARQ DAVLATLARIDA JAMIYAT VA MILLATNING SHAKLLANISHIDA MA'MURIY KOMMUNIKATSIYALARNING AHAMIYATI

*Muhabbat Saliyeva*

*O'qituvchi, dotsent,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*Email: [muhabbat2962@mail.ru](mailto:muhabbat2962@mail.ru)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** jamiyat, boshqaruv, ma'muriy, huquq, devon, qonun, joriy, raiyat, lashkar, muhr.

**Annotatsiya:** Maqolada Sharq xalqlarining o'rtasrlarda erishgan yutuqlari, umuman, badiiy tafakkurning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan: matematika va astronomiyadan boshlab she'riyat va nasrgacha G'arbiy uyg'onish davrida ijod qilgan mashhur Yevropa olim va yozuvchilarining asarlarida Sharq Qur'oni karim va hadislarga, Xorazm, Buxoro va Samarqandda yashagan fan va ta'lim namoyandalariga, bu yerda tashkil topgan ilmiy va adabiy muhit, mazmun va janrlarga, devon-u ruboiylarga, arab va fors tilida bitilgan xatlarga murojaatlar ko'pdan ko'p uchraydi, jumladan, "algebra" va "meditsina" so'zlarigacha. O'rtasrlardagi Sharq madaniyatini o'rganish globallashuv davrida yanada dolzarblashmoqda. Axboriy tajovuzlar natijasida bugungi kunga kelib, insoniyat hayotida o'rnatilgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar asta-sekin yemirilib, odamzod postmavjudlik (постсуществование) davriga o'tmoqda. Daniell Belldan keyin "post" so'zi ommalashib ketdi. Postindustrial jamiyat, postmodernizm, postinsoniy kelajak (постчеловеческое будущее), postzamonaviylik (постсовременность) tushunchalari keng iste'molga kirmoqda. Xullas, hozirgi davrning murakkabligi zamonaviy xalqaro va milliy ommaviy axborot vositalari ta'sirida ko'p asrlar davomida shakllangan qadriyatlarining ahamiyatiga muayyan ma'noda putur yetayotganida ham o'z ifodasini topmoqda. Shuning uchun kunning muhim vazifalaridan biri – o'rtasrlar tajribasiga yana bir bor murojaat etib, ming yillik sinovlaridan o'tgan ijobiy natija va madaniy boyliklarni to'laroq o'zlashtirish, insonparvarlik g'oyalaridan samarali

foydalanishdir. Bu muammo aynan kosmopolitizm avj olayotgan va u ko‘proq G‘arb manfaatlariga xizmat qilayotgan mafkura ekanligi tufayli dolzarb bo‘lmoqda.

## THE IMPORTANCE OF ADMINISTRATIVE COMMUNICATIONS IN THE FORMATION OF SOCIETY AND NATION IN EASTERN COUNTRIES

*Muhabbat Saliyeva*

*Lecturer, associate professor,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Society, management, administrative, law, cabinet, law, acting, rayat, lashkar, muhr

**Abstract:** In the article, the achievements of the peoples of the East in the Middle Ages had a strong influence on all areas of artistic thought: from mathematics and astronomy to poetry and prose, in the works of famous European scientists and writers who worked during the Renaissance, the Holy Quran and hadiths, representatives of science and education, who lived in Khorezm, Bukhara and Samarkand., there are many references to the scientific and literary environment, content and genres, sofas and rubais, letters written in Arabic and Persian, including the words "algebra" and "medicine". The study of Middle Eastern culture is becoming increasingly relevant in the era of globalization. As a result of media attacks, the spiritual and moral norms that have been established in the life of mankind are gradually being eroded, and humanity is moving into the era of post-existence (post-existence). After Daniel Bell, the word "fast" became popular. The concepts of post-industrial society, postmodernism, posthuman future (posthuman future), postmodernity (postmodernity) are widely used. So, the complexity of the modern era is also expressed in the fact that under the influence of modern international and national mass media, in a certain sense, the significance of values that have been formed over many centuries is undermined. Therefore, one of the important tasks of the day is to once again turn to the experience of the Middle Ages, to fully assimilate the positive results and cultural values that have passed the test of millennia, and to effectively use humanitarian ideas. This problem becomes relevant precisely because cosmopolitanism is on the rise, and this is an ideology that serves the interests of the West.

## ЗНАЧЕНИЕ АДМИНИСТРАТИВНЫХ КОММУНИКАЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВА И НАЦИИ В СТРАНАХ ВОСТОКА

*Муhabбат Салиева*

*Преподаватель, доцент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:**

*Общество, управление, административное, право, кабинет, право, действующий, райят, лашкар, мухр.*

**Аннотация:**

В статье достижения народов Востока в средние века оказали сильное влияние на все области художественной мысли: от математики и астрономии до поэзии и прозы, в произведениях известных европейских ученых и писателей, творивших в период Ренессанс, Священный Коран и хадисы, представители науки и просвещения, жившие в Хорезме, Бухаре и Самарканде., много ссылок на научную и литературную среду, содержание и жанры, диван и рубаи, письма, написанные на арабском и персидском языках, включая слова «алгебра» и «медицина». Изучение ближневосточной культуры становится все более актуальным в эпоху глобализации. В результате атак СМИ духовно-нравственные нормы, устоявшиеся в жизни человечества, постепенно размываются, и человечество переходит в эпоху постсуществования (постсуществования). После Дэниела Белла стало популярным слово «пост». Широко используются концепции постиндустриального общества, постмодернизма, постчеловеческого будущего (постчеловеческое будущее), постмодерна (постсовременности). Итак, сложность современной эпохи выражается еще и в том, что под влиянием современных международных и национальных средств массовой информации в определенном смысле подрывается значимость ценностей, формировавшихся на протяжении многих веков. Поэтому одна из важных задач дня — еще раз обратиться к опыту Средневековья, в полной мере усвоить положительные результаты и культурные ценности, прошедшие испытания тысячелетий, и эффективно использовать гуманитарные идеи. Эта проблема становится актуальной именно потому, что космополитизм на подъеме, а это идеология, служащая интересам Запада.

---

**INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH**

Jamiyat va millatni shakllanishida qaysi bir tashkiliy tuzilma ko‘proq ahamiyatga ega, degan savol qo‘yilsa, albatta, birinchi o‘rinda davlat boshqaruvi tilga olinadi. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda ommaviy kommunikatsiya yordamida davlatlar qanday boshqarilgan? Ushbu masalani bir qator kitoblar misolida ko‘rib chiqish mumkin. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida shunday maslahatlar beriladi: “Sohibi qonun, birinchidan, qonunlarni joriy qila olishi, ikkinchidan, farmon berishni bilishi zarur, deydi. Agar u o‘zi buyurgan narsani joriy etolmasa, agar boshqalar bo‘ysungan narsaga o‘zi amal qilmasa, u holda uning so‘zlari qo‘l ostidagilarga ta’sir etmaydi”<sup>1</sup>. Demak, ma’muriy boshqaruvning muhim vazifalaridan bittasi – qonunlarni tayyorlash va ular yordamida davlat boshqaruvini ta’minlash. Qonun chiqaruvchi

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993. – B. 20.

ham shu qonunlarga amal qilishi zarur, aks holda, Forobiy aytganidek, uning soʻzlari qoʻli ostidagilarga taʼsir etmaydi.

Sohibi qonun tarixiy anʼanalarni, falsafa, huquq haqidagi asarlarni oʻrganib, qonun chiqarishni uddalashi va farmon berish sanʼatini oʻrganmogʻi shart. Bu haqda Forobiy quyidagicha guvohlik keltiradi: “Soʻngra Aflotun sohibi qonunga murojaat etib, agar sohibi qonun yoshligidan boshlab davlat ishlari boʻyicha foydali mashqlar qilib yurishga, davlat ishlarining toʻgʻri va notoʻgʻriligi haqida mulohaza yuritishga oʻrgangan boʻlsa, u holda vaqti-vaqti bilan oʻzi ustidan nazorat oʻrnatishi hamda avvallari shugʻullangan va hozir ham davom ettirayotgan mashgʻulotlariga sabot, qunt bilan qarashi zarurligini tushuntiradi”<sup>2</sup>. Forobiyning ushbu asarida Aflotun kabi olimlarning qoʻlyozmalarida aytilgan fikrlarning kerakli qismlari rivojlantirilib, sharhlanib, keyingi avlodlarga yetkazildi.

Boshqa bir joyda muallif shunday deb yozadi: “Hokimlar oʻrtasida tabiiy tartibni oʻrnata olmagan qonun chiqaruvchi koʻp oʻtmay masxara boʻladi va nihoyat uning ishlari tushunarsiz boʻlib, chiqargan qonun hamda u bilan shaharning oʻzi ham inqirozga yuz tutishi mumkin”<sup>3</sup>. Fikrimizcha, davlat boshqaruvida hokimlar faoliyatiga eʼtibor berilganligi va ushbu meʼyorlar ommaviy bogʻlanishlar yordamida keng targʻib qilinganligi bois ushbu kitob mumtoz asarga aylandi.

Oʻrta asrlarda bitilgan boshqa asarlarda ham davlat boshqaruvining har xil shakllari va ular haqidagi maʼlumotlarni ommaga yetkazish zarurligi yuzasidan fikr yuritiladi. Masalan, Narshaxiy shunday yozadi: “Hamukentdan kelgan har bir kishi (amirning) yaqin kishilaridin boʻladi” degan buyruq boʻldi<sup>4</sup>. Amirning buyrugʻi boshqaruvning bir usuli sifatida xizmat qilgan. Hamukentdan kelgan bir kishi amirga tegishli, unga yaxshi muomala qilish, izzat-hurmat koʻrsatish zarur, deb tushuniladi, chunki keladigan mehmonning qadriyati buyruq bilan tasdiqlangan. Boshqacha qilib aytganda, uning yuqori maqomi podshoh tomonidan belgilangan.

Boshqa oʻrinlarda ham buyruq shaklidagi maʼlumotlarni koʻpchilikka yetkazish zarurati haqidagi fikrlar bor. Masalan, “Buxoro xalqi Xuroson amiri Muhammad ibn Abdulloh ibn Talxa at-Tohirin tomonidan Buxoro amiri boʻlib turgan Ahmad ibn Xolidan: «Shahrimiz atrofida devor boʻlishi kerak, toki biz kechasi darvozalarni berkitib, oʻgʻrilar va yoʻlkesarlardan tinch boʻlaylik», – deb iltimos qildilar. Shundan keyin u devor urishga buyurdi va juda yaxshi mahkam devor urib, minoralar qurdilar, darvozalar oʻrnatdilar»<sup>5</sup>. Maʼlumki, Buxoro atrofi devor bilan oʻralgan boʻlib, keyinchalik uning 12 darvozasi boʻlgan. Shunday qilib, rahbar buyrugʻi maʼlum bir maʼlumotni koʻpchilikka yetkazish xususiyati tufayli ommaviy kommunikatsiyaning muhim turi hisoblanadi.

Narshaxiyning kitobida oʻrta asrlarga xos davlat boshqaruvi haqida koʻp misollarni koʻrish mumkin. Tadqiqotimiz uchun kitobning muhimligi, birinchidan, aynan oʻrta asrlarda yozilgani bilan, ikkinchidan, unda oʻsha davrdagi ommaviy kommunikatsiyalar haqida aniq va boy maʼlumotlar borligi bilan shartlanadi.

Masalan, Ismoil Somoniy davlatida oʻnta devon bor edi. Bugungi kun oʻlchovi bilan biz ularni vazirliklar deb baholashga haqlimiz. Bular mudofaa, moliya, ichki tartib, aloqa va boshqa devonlardir. Oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, mazkur devonlar katta hajmda maʼmuriy

<sup>2</sup> Oʻsha asar. – B. 21.

<sup>3</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahni. – T.: «Xalq merosi», 1993. – B. 39.

<sup>4</sup> Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991. – B. 91.

<sup>5</sup> Oʻsha asar. – B. 113.

yoʻnalishdagi ommaviy bogʻlanishlarni amalga oshirgan. Kitobda aytilishicha, dastlabki devonlar taxminan bir necha asr oldin oʻz faoliyatini boshlagan.

Narshaxiy bayon qilishicha, “Amiri Saʼid Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniylar Registonga bir saroy (qurishni) buyurdi; gʻoyatda goʻzal bir saroy qurdilar; (Amir) bunga koʻp mol sarfladi; u oʻz saroyi darvozasi oldida amaldorlari uchun saroy qurishga buyurdi, uni ham qurdilar, shundayki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan oʻz saroyida alohida devoni bor edi; masalan: vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat hujjatlarini boshqarish ishlari devoni, soqchilar boshligʻi devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, davlat xos mulklari devoni, muhtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni»<sup>6</sup>.

Ismoil Somoniylar qobiliyatli rahbar boʻlgan. Uning davlatni rivojlantirish uchun doimiy kurashgani, vazirlarining samarali faoliyatlari bois mamlakati gullab, yashnagani va saroy devonlari ancha rivojlanib, katta ahamiyatga ega boʻlishi fikrimizning dalilidir. Bu haqda Adam Mes ham oʻz kitobida yozgan. Natijada Ismoil Somoniylar davlati katta hududni egallab turgan edi, chunki u davlat boshqaruvida turli yoʻnalishdagi kommunikatsiya shakllaridan keng va unumli foydalangan. Xat va buyruqlardan tashqari amir maslahat kengashlarini ham oʻtkazgan va mazkur maslahat kengashlarida koʻpchilikning fikrini eshitib, asosli qarorlar qabul qilgan. Koʻpchilik bilan bamaslahat ishlar qilinganligidan xulosa chiqarish mumkinki, oʻsha vaqtda ham rahbarlar tomonidan xalq va jamoatchilik bilan bogʻlanish, ularning fikrini eshitish amalga oshirilgan. Ismoil Somoniylar nafaqat oʻzi yashagan vaqt xususiyatlarini, shu bilan bir qatorda oldingi davrlarning tarixiy tajribasini, adolatli podshohlar faoliyatini oʻrgangan.

Xabarni podshohga yetkazib borish oʻsha vaqtlarda ham oson emasdi, lekin koʻpgina adolatli podshohlar davlatni toʻgʻri boshqarish maqsadida ommaviy bogʻlanishlar yordamida xalqning fikrini eshitgan va uning istaklarini amalga oshirgan. Jumladan, oddiy odamlar ham ularga oʻz fikrini bildirish imkoniyatiga ega boʻlishi kerakligiga eʼtibor berilgan. Nizomulmulkning yozishicha: “Noʻshiravon buyruq chiqaradi: bir zanjirga qoʻngʻiroqlarni shunday pastlikda osiltirib qoʻyinglarki, yetti yoshli bolaning ham qoʻli yetsin. Biror-bir mutazallim saroyga kelsa, eshik qorovuliga ishi tushmasin-u, shu qoʻngʻiroq ipini tortsin va Noʻshiravon eshitib, uning dodini tinglab, chora qilsin”<sup>7</sup>. Sohibi xabar podshohning eng ishonchli xizmatchilaridan hisoblanib, u davlat rahbariga aholining xabarini yetkazib turishi kerak boʻlgan. Nizomulmulk asarida aks ettirilishicha, podshoh barcha maʼlumotlardan xabardor boʻlishi kerak, agar xabar unga vaqtida yetkazilmasa, bu davlat boshqaruvida jiddiy kamchilik deb hisoblangan va bunday paytlarda xabar yetkazuvchiga nisbatan chora koʻrilgan.

“Siyosatnoma”da maʼmuriy kommunikatsiyaning boshqa usullarini ham uchratish mumkin. Masalan, Nizomulmulk podshoh saroyida oʻtkaziladigan majlisga batafsil tavsif beradi. Birinchidan, keladigan odamlar soni aniq koʻrsatilardi. Chunki majlisga qatnashishi kerak boʻlgan kishilarning kelishi va har birining qandaydir vazifani bajarishi nazarda tutilgan. Ikkinchidan, yigʻilishga ortiqcha odam kelmasligi talab qilingan. Uchinchidan, muhokama qilinadigan masalaga qarab, har toifa qatnashchilarining alohida yigʻilishi, har toifaga rejalashtirilgan maʼlumotni alohida yetkazilishi va yetib borishining kuzatilishi, uning bajarilishini taʼminlashni nazorat qilinishi ham yoʻlga qoʻyilgan edi.

<sup>6</sup> Narshaxiy, Abu Bakr. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991. – B. 105–106.

<sup>7</sup> Abu Ali Nizomulmulk. Siyosatnoma. – T.: «Yangi asr avlodi», 2008. – B. 43.

Nizomulmulkning yozishicha: «Podshohga raiyat va lashkar ahvolidan to‘la xabardor bo‘lish va ularga qancha xarajat ketishini bilish vojibdir. Agarda shunday bo‘lmasa, katta xato bo‘ladi. Omillar<sup>8</sup> sitamkorlikka qo‘l uradilar va mamlakatda sodir bo‘layotgan fasod va zolimlikdan podshohning yo xabari bor yoki yo‘q, deydilar. Agarda bila turib man qilmasa, unda u ham shularga o‘xshagan zolimlik qilgan va o‘zi zulm-u sitamga rozilik bergan bo‘ladi va agarda bilmasa, demak, u g‘ofildir. Har ikki holat ham yaxshi emas. Shunday ekan, sohibxabarga hojat seziladi»<sup>9</sup>. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, sohibxabar davlat boshqaruvida muhim o‘rin egallardi.

Maslahatga mas‘ul odamlar ma‘lum mavqe va bilimga ega bo‘lgan kishilardan tanlangan. Podshoh qabuliga kirgan odamlar ismi sharifi, qabulning maqsadi va ularga qanday ko‘rsatmalar berilganligi ham nazorat qilingan. Ushbu asarda bu haqda bir qancha ma‘lumotlar bor.

Bayhaqiy, amir Shaxobiddin so‘zlarini keltirib, yozadiki: “Bizning buyrug‘imizga binoan qamoqxonalardagi begunohlarni nazoratdan o‘tkazing va kishilarni kishanlardan yeching, qachonkim tinchlik bo‘lib, bizning kelishimiz ovoza bo‘lib, barcha yuraklarga borib yetsin”<sup>10</sup>. Zamonaviy til bilan aytganda, bu – amnistiya, afv, ya‘ni keng aholiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan ma‘muriy chora. Bayhaqiy amirlar va mahalliy rahbarlar o‘rtalaridagi munosabatlari haqida gapirganda xat yozishmalari keng yoyilganini ham tilga oladi.

Asarda amir Mas‘ud bilan Gurgan va Tabariston boshlig‘i Minuchebr o‘rtasida uzoq vaqt davomidagi yozishmalarning asosiy qismi maxfiy ekanligi haqida gapirilib, “Qobusning o‘g‘li Minuchebr bilan amir Mas‘ud o‘rtasida, amir Mas‘udning Hirotga kelgan chog‘larida, doimiy maxfiy yozishmalar bo‘lib turgan. Minuchebr amirga o‘zining bir odamini, ya‘ni Hasan Muhaddisni yuborib, amirga vaqti-vaqti bilan xat va odatiy axborotni yetkazib turgan”<sup>11</sup>, deydi.

Davlat rahbarlari viloyatlar haqida ham ma‘lumotlar yig‘ib turganlar. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, aholi kayfiyati to‘g‘risida podshohlar o‘z vaqtida kerakli axborotni bilib borganlar. Qisqasi, saroyda hamma narsadan xabardor bo‘lish uchun tegishli imkoniyatlar yaratilgan.

Kitobdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, agar biron-bir zodagonga lavozim berilayotgan bo‘lsa, vazir tegishli shartnomani yozardi va u odamdan vazifalarni uddalash haqida fikr so‘rardi. Agar ijrochi bunga ijobiy munosabat bildirsa, podshoh shartnomaga qo‘l qo‘yardi. Lavozimga tayinlangan odam kelishuvdagi barcha shartlarni bajarishga so‘z berib, qasam ichardi. Faqat shundan keyingina hujjat hammaning oldida e‘lon qilinardi hamda lavozim egasi o‘z ishini boshlardi.

Xullas, amalga tayinlanayotgan odamning bajarayotgan vazifalari hammaning oldida baland ovoz bilan e‘lon qilinardi. Amirlar o‘zlarining maxsus muhrlariga yoki uzukka ishlangan shaxsiy muhrlariga ega bo‘lgan, bu uzuklarda ular xohlagan yozuv va tasvirlar, masalan, amirning ismini yoki boshqa biron-bir timsolni aks ettirishi rasm bo‘lgan. Xatlar yoki buyruqlar ishonchli bo‘lishi uchun ular uzuk bilan muhrlangan. Masalan, amir Mas‘udning qo‘lida feruza toshidan yasalgan uzuk bo‘lib, bu uzukda amirning ismi o‘yib yozilgan.

Bayhaqiyning yozishicha, amir Mas‘ud saroy yig‘ilishlarini ko‘p hollarda ochiq o‘tkazgan. Ularga devon rahbarlari, zodagonlar yoki boshqa odamlar kelishi mumkin bo‘lib, xohlagan murojaat qilsin, deyilgan. Ayrim podshoh yoki vazirlar devonning yig‘ilishlari va eshiklari

<sup>8</sup> Omil – zakotchi, xiroj oladigan amakdor.

<sup>9</sup> Abu Ali. Siyosatnoma Nizomulmulk. – T.: «Yangi asr avlodi», 2008. – B. 65.

<sup>10</sup> Абу-л-Фазл Байхаки. История Масъуда. – М.: “Наука”, 1969. – С. 108.

<sup>11</sup> Абу-л-Фазл Байхаки. История Масъуда. – М.: «Наука», 1969. – С. 205

doimo ochiq, deb e'lon qilishgan. Saroy xodimlari fuqarolarni qabul qilib turganligini amir tomonidan maxsus tayinlangan vakillar eshitib turgan. Bayhaqiy vazir devoni, harbiy devon, devonxona (kanselyariya) va saroy devonlari faoliyati haqida aniq misollar keltiradi. Muallif yozishicha, ijobiy yangiliklar bilan kelganlarni Mas'ud yaxshi kutib olgan. Hatto karnay-surnay sadolari ostida bunday xabarchilarga to'nlar kiydirgan, darakchilar butun askarlar ichida yurib anchagina sovg'a ham olganlar.

Podshoh saroyida oliy majlis shaklida kengashlar ham bo'lib turgan. Ayrim paytlari bunday majlislarning muhokamalari ertalabdan tun yarmigacha davom etgan. Tartib bo'yicha vazir kengashda birinchi bo'lib o'z fikrlarini bildirish huquqiga ega bo'lgan va kengash davomida barchaning gapini eshitib, keyin birgalikda qaror qabul qilingan. Masalan, Hirotga yurish yoki G'aznadan harbiy askar so'rash, qurol, pul so'rash haqidagi qarorlar ko'pchilik ovozi bilan yig'ilishda qabul qilingan.

Forobiy, Nizomulmulk, Narshaxiy asarlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, turli joylarda rahbarlik qilgan podshohlar davlat boshqaruvida ko'proq Aflotun g'oyalariga asoslangan. Keyincha esa davlat boshqaruvida "Siyosatnoma" va boshqa shunga o'xshash metodologik kitoblarga asoslangan asarlar ham paydo bo'ldi. Ulardan bittasi – "Temur tuzuklari" edi. Temur o'z kitobida aytganidek, «...davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadim...»

Amirlar, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardlig-u mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Turon, Eron, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, ikki Iroq, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jete Dashti, Qipchoq Dashti, Xorazm, Xo'tan, Kobuliston, Boxtarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim»<sup>12</sup>. Amir Temurning davlat boshqarish siyosati juda samarali bo'lgan va u "Kuch adolatdadir" degan shior ostida o'z g'oyalarini amalga oshirgan. Natijada, yirik imperiya yaratgan. Saltanatni mustahkamlashda tuzukka katta e'tibor bergan, tartib-qoida esa ko'proq ommaviy axborotdan unumli foydalanishga asoslangan bo'lgan.

Muallif aytishicha, "dono vazir shuldiki, saltanat korxonasining ishlarini eng to'g'ri chora-yu tadbirlar qo'llab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib-intizomga keltiradi"<sup>13</sup>. Davlatni samarali boshqarish uchun to'g'ri axborotdan foydalanishni talab qilgan. Shuning uchun, Sharafiddin Ali Yazdiy yozishicha, "har qanday voqea, o'zgartirish kiritmay, oshirmay, kamaytirmay, ya'ni aslida qanday kechgan bo'lsa, o'shanday ko'rsatib berilsin, deb buyurilgan"<sup>14</sup>.

Ma'muriy boshqaruvni uddalash axborot ishini to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, ommaviy axborot almashuvimiz bajarib bo'lmasdi, albatta. Axborotning o'z vaqtida yetkazilishi, axborot to'g'riligi ham nazorat qilingan, garchi ortiqcha qattiq choralar yordamida bo'lsa ham.

Ommaviy axborot yordamida davlat boshqaruvi haqida bir qator ko'rsatmalarni Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi Sa'dayn va Majmayi Bahrayn" asarida ham ko'ramiz. Masalan, muallif shunday deb yozadi: "Mirzo Pir Muhammad intiqom olib bo'lganidan keyin:

<sup>12</sup> Amir Temur. Temur tuzuklari. –T.: G'ulom nomidagi NMIU, 1996. –B. 69.

<sup>13</sup> O'sha asar. –B. 96.

<sup>14</sup> O'sha asar. –B. 9.

«Hech bir yaratilgan maxluq biror kishiga tegmasin; jang kunida qo‘lga tushirganlaridan tashqari hech bir kimsaga daxl qilmasinlar» deb buyurdi»<sup>15</sup>.

Abdurazzoq Samarqandiy asarida davlat boshqaruvida pand-u nasihat, duoyi xayrlarning o‘rni ham ko‘rsatilgan. Bu haqda u yozadiki, Onhazrat (Humoyun) tomonidan «podshohona nasihat bayon qilinadi: U (Mirzo Ibrohim Sulton) shunday qilmog‘i lozimki, raiyatlar rahmshafqat to‘shagida osoyishtalik rohatini surib, duo qilish bilan mashg‘ul bo‘lsinlar va xatarsizlik lazzati ham insof halovatini jon zavqi bilan his etsinlar; u shunday qat‘iy hukm joriy qilsinki, noiblar sira ham adolat yo‘lidan tashqari chiqmasinlar va devonga tegishli mollarni hosil qilishda o‘rnatilgan qoidadan nari o‘tmasinlar. (Ana shunda) mulk tarovatini yangilovchi bo‘lgan yaxshi nom va davlat asosini mustahkamlovchi bo‘lgan duoyi xayr, ulug‘lik chehrasining ko‘rki bo‘lmish go‘zal maqto‘vlar-u bekam-u ko‘st saodat sababi bo‘lmish mo‘l mukofotlar biz uchun ham, u saodatmand farzand uchun ham hosil bo‘lg‘usidir»<sup>16</sup>. Muallif tilga olgan hukm, albatta, ko‘pchilikka e‘lon qilinib kuchga kirgan.

Mamlakatning turli burchaklaridan har xil egalari tomonidan axborot olib turish podshoh uchun muhim ahamiyat kasb etardi. Bu haqda Mirzo Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi” asarida shunday deb yozadi: “Besh yuz nafar musulmon savdogar uch nafar elchi hamrohligida jo‘natildi. Elchilarning biri Muhammad Xorazmiy, ikkinchisi Umar, uchinchisi Yusuf edi”<sup>17</sup>. Savdogar va elchilarning vaqti-vaqti bilan kerakli ma‘lumotlarni yetkazib turishlari davlat boshqaruvining muhim qismi bo‘lgan.

Podshohning boshqaruvchisi, ya‘ni arabcha, forsha, turkcha, mo‘g‘ulcha, xitoycha tillarni biluvchi zabondon (notiq) hamda podshoh va elchi o‘rtasida kalimachi tarjimonlar bo‘lgan. Boshqa mamlakatlarda faoliyat yuritib, ularning tajribasini o‘rganish ham qadrlangan. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridagi ayrim fikrlarga murojaat etamiz: “Mamlakat ishlarini boshqarish, din-u davlat qoidalarini mustahkamlash uchun Forsda turish va bu mamlakat o‘zga mamlakatlarga nisbatan bamisoli gardanband o‘rtasidagi bog‘lovchi durdonadek va barcha shaharlar debochasining ziynatidek bo‘lganligi sababli, bu diyorning man etish va hal qilish ishlari jahon amirzodasi Umarshayxning o‘tkir ra‘yi va uzoqni ko‘ra biluvchi aqliga havola etilsin”<sup>18</sup>. Bu yerda Umarshayx tomonidan davlat tizimini va boshqaruvini kuchaytirish masalasida Eron tajribasini o‘rganish haqida aniq ko‘rsatmalar berilgani ko‘rinib turibdi. O‘z navbatida, bular ommaviy bog‘lanishlar yordamida amalga oshirilardi. Mazkur axborotlar, eng avvalo, rahbar doiralari o‘rtasida tarqatilgan, ularga yetkazilgan va tushuntirib berilgan.

Bunday ma‘lumotlar ommaviy kommunikatsiya ekanligini quyidagi so‘zlardan anglash mumkin: “Orzu-umidlar oliy muhr ila imzolangani uchun unga ishonsinlar. Hijriy sakkiz yuz oltinchi yil ulug‘ sha‘bon oyining oxirlarida (milodiy 1404-yil mart oyining o‘rtalarida) bitildi”. “Ishonsinlar” degan so‘z ko‘pchilikka tegishli ekanligiga shubha yo‘q.

Podshohning buyruqlari, uning qarorlari va boshqa vazifalar muallif tomonidan oliy muhr bilan tasdiqlangan deb ta‘riflanadi. Davlat maqomining asosiy belgilaridan bittasi muhr bo‘lib, hozir ham hujjatlar muhr bilan tasdiqlanadi.

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda podshohlar o‘z davlat tizimi va boshqaruvining ommaviy kommunikatsiya yordamida mukammallashtirilishi nafaqat shu yerda yashagan mutafakkirlar, undan tashqari, Yevropadan o‘sha davrlarda Osiyo mamlakatlariga kelib, bu yerdagi voqealarni

<sup>15</sup> Samarqandiy A. Matlayi Sa‘dayn va Majmayi Bahrayn. – T.: “Fan”, 1969. – B. 113.

<sup>16</sup> Samarqandiy A. Matlayi Sa‘dayn va Majmayi Bahrayn. – T.: “Fan”, 1969. – B. 207.

<sup>17</sup> Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: “Cho‘lpon”, 1993. – B. 127.

<sup>18</sup> Shomiy, Nizomiddin. Zafarnoma. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – B. 179.



koʻrgan tarixchilarning asarlarida ham aks ettirilgan. Masalan, 2000-yilda “Sharq” nashriyatida chop etilgan “Путешествие” nomli asarda bayon etilishicha, bir nemis ritsari bir necha yil Turkiya sultoni Boyazidning asiri boʻlgan. Boyazid Amir Temurdan magʻlubiyatga uchragandan keyin, uning yerlari va qullari Amir Temurning qoʻliga oʻtadi. Endi Amir Temurning xizmatini qilgan bu nemis asirlik davridagi sarguzashtlarini keyinchalik kitob shaklida yozadi. Uning sayohatnoma janridagi “Путешествие” asari 1394–1422-yillarni qamrab oladi.

Sayohatnomada aytilishicha, Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan katta yoʻllarda maxsus karvonsaroylar qurilgan. Bu karvonsaroylarda ommaviy kommunikatsiyani amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar boʻlgan. Yaʼni, karvonsaroyga yaqinlashayotgan paytida uning qoʻngʻiroqʻi jaranglagan. Qoʻngʻiroq ovozi eshitilishi bilan saroybon boshqa bir otni tayyorlab turgan, chopar kelib bir otdan tushib ikkinchi otga minib yoʻlini davom ettirgan. Oʻrta asr karvonsaroylari ommaviy axborot markazlari ekanligi haqida maʼlumotlar koʻp. Oʻsha davrlarda podshohlar va ular tayinlagan shaxslar xabarlarini shu tarzda yetkazganlar. Davlat maʼmuriyati karvonsaroylarning toʻxtovsiz ishlab turishini nazorat qilgan va taʼminlagan.

Mirzo Ulugʻbekning “Toʻrt ulus tarixi” kitobida ommaviy tadbirlar haqida quyidagicha bayon etiladi: “Jahon sohibqironi (Aʼzam Temuchin Qooni muazzam – M.S.) buyurdi: «Oq bayroq tikishsin; Sipoh Tangri iqbolidan zafarga mayl koʻrguzdilar. Har chekkadan qurultoyga yigʻilishsin. Kohin-u ulugʻlar saroyga kelishsin. Sovvun keltirib sovrnun yeyishadi; suyurgʻol koʻrurlar, oʻrun olurlar»<sup>19</sup>. Bu yerda bir qator boshqaruv usullari oʻz ifodasini topgan, jumladan, mamlakatning turli burchaklaridan vakillarni qurultoyga chaqirish va boshqalar. Mazkur asarda qurultoyni tashkil etish tartibi, unga kimlar qatnashishi kerakligi, har bir qatnashuvchining bajarilayotgan vazifasi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Maʼlumki, Chingizxon faxriy nom boʻlib, uning asl ismi Temuchin edi. Mirzo Ulugʻbekning asarida Temuchin davlatni qanday boshqarganligi haqida fikr yuritilgan. Masalan, “Temuchin saodatli toj kiyib taxtga oʻltirdi. Har tomondan bugʻchi va uljorchilar kelib tiz choʻkdilar. Jarchi ustiga jarchi chaqirardi. Moʻgʻul elu ulusi qavmlaridan ogʻa-ini, ota-yu oʻgʻillar xos-u avom saroyga kelishdi”<sup>20</sup>. Podshohning taxtga oʻtirishi, farmonlar chiqarishi, davlatni boshqarishi, fuqarolarni qabul qilishi – bularning hammasi tartiblashtirilgan holda amalga oshirilgan. Jarchi ustiga jarchi chaqirilgani katta ahamiyatga ega, shu usulda ketma-ket axborotlar keng ommaga yetkazib turilgan, aholi esa bunday axborotga qarab harakatini qilgan.

Shu bilan bir qatorda, odamlar saroylarga kelib podshohni ulugʻlashgan, uning farmonlarini eshitib, ularga amal qilishgan. “Yasovul xalqni har tarafga oʻtkizib, saf torttirdi. Xalq qurultoyiga har tarafdin joy oldi. Avongʻor-u javongʻorga oʻn ikki qatordan saf tortishdi. Yasovul har bir safni qoʻrlarga ajratdi. Uning ishiga oqillar tahsin oʻqidi va maʼqulladi. Bu saf tortgan yulduzlar shoh uchun edi. Olam mohtobi (yorugʻligi) oy tufayli boʻlganidek, aql kuchidan ofaringa soʻz ochdilar va xalq unga taʼzim qildi. Kelganlarning barchasi unga duo va sano oʻqirdi”<sup>21</sup>, deb yozilgan Mirzo Ulugʻbek asarida. Maʼlum darajada ushbu tadbir ritual xarakterga ega, yaʼni bu yerda shaxsga sigʻinish bor. Lekin shaxsga sigʻinish har bir davrda, jumladan, oʻrta asrlarda anʼana hisoblanib kelingan.

Mirzo Ulugʻbek oʻz kitobining “Shahzoda Yasovur oʻgʻlon ibn Oʻrkte murxon ibn Toʻqtemurxon ibn Qudagʻay ibn Nuri Yomkon ibn Chigʻatoyxon ahvolining bayoni” deb nomlangan qismida shunday yozadi: «Biror voqea boʻlishi ehtimolining oldini olib, Tus yoʻli

<sup>19</sup> Mirzo Ulugʻbek. Toʻrt ulus tarixi – T.: “Choʻlpon”, 1993. – B. 98.

<sup>20</sup> Oʻsha asar. – B. 99.

<sup>21</sup> Oʻsha asar. – B. 99.

bilan Jomga keldi. Bu yerdan Muborakshoh ibn Buqoyni ketidan maktub yo‘llab ketma-ket Hirotga jo‘natdi»<sup>22</sup>.

Asarning boshqa bir joyida muallif yozadiki: «Tavorix roviylari xabar beradilarki, Chingiziy najod xonlari shahzoda Chig‘atoy ulusidan xonlik taxti va jahonbonlik saririga o‘ltirganlar. Ularning adadi ushbu nusxa iqtibos topayotgan davrda 28 nafarga yetgan edi. Bekam-u besh. Birinchi xon Chig‘atoyxon ibn Chingizxon.

Mamlakat oluvchilar xabarlarining rivoyat qiluvchilari, sohibqiron asarlarining noqillari shunday tarannum etadilar»<sup>23</sup>. Bu ham o‘z vaqtida xabar yuborish va ogohlantirish, shuningdek, ma‘lumot olishga yo‘naltirilgan harakatlar hisoblangan, ya‘ni keng miqyosda ommaviy kommunikatsiya amalga oshirilgan.

Bugungi tizim bilan o‘sha davrni solishtirsak, albatta, katta farq ma‘lum bo‘ladi. Ya‘ni, u vaqtlarda harbiy qo‘shinlar bugungiday kuchga ega bo‘lmagan yoki axborot almashuvi hajmi ham bugungidek katta bo‘lmagan. Lekin bu – bugungi kungi ko‘rsatkichlar. Aslida podshohlarning o‘sha davrlarda amalga oshirgan boshqaruv ishlari o‘rta asrlar me‘yorlari bilan ancha rivojlangan bo‘lib, ko‘p jihatlardan ommaviy bog‘lanishlarga asoslangan. Ommaviy kommunikatsiya bo‘lmaganda birona davlat paydo bo‘lishi, rivojlanishi mumkin emas edi. Biz bu masalada amerikalik Jon Dyuning «jamiyat – bu kommunikatsiyadir» degan fikriga qo‘shilamiz. Faqatgina kommunikatsiya bor joydagina davlat bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo hududida barpo etilgan davlatlar tizimlari birinchi o‘rinda qilichga emas, balki ijtimoiy bog‘lanishlar jarayoniga asoslangan. Bunday bog‘lanishlar, bir tomondan, keng miqyosda amalga oshirilgan, ikkinchi tomondan, ular ko‘p tarafdin bo‘lgan. Agar biz mazkur ko‘p tomonlikni umumlashtirmoqchi bo‘lsak, quyidagi asosiy bosqichlarni ajratishimiz mumkin. Ma‘muriy kommunikatsiya, eng avvalo, bamaslahat qabul qilingan farmon, qonun, hukmlarga asoslangan. Undan keyin mazkur qarorlar poytaxt va viloyatlarda mahalliy ma‘murlar, jarchilar yordamida e‘lon qilingan. Uchinchidan, qarorlar bajarilishi nazorat qilingan va ularga bo‘ysunmaganlar jazolangan. To‘rtinchidan, markaziy hokimiyat qarorlari bajarilishini nazorat qilish uchun viloyatlar bo‘yicha mas‘ullar tayinlangan, ular esa markazga tegishli ma‘lumotlarni yuborib turgan. Hatto, mahalliy hokimlar ishini kuzatib turgan maxsus odamlar ham markazga axborot yetkazib turgan.

<sup>22</sup> Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi – T.: “Cho‘lpon”, 1993. – B. 271.

<sup>23</sup> O‘sha asar. – B. 296–297.